


**FARG'ONA VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2020-yil yanvar dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi - 1 006,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 116,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 117,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 890,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 103,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 73,4 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 %) ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atilari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Qo'shstepta, Quva va Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o'sdi va 116,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,6 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 890,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 3,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)da

2019-yil yanvar




2020-yil yanvar



█ Yirik korxonalar
█ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%)da**



█ **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari**
 █ **Yirik korxonalar**

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Qo‘shtepa (99,9 %), Farg‘ona (99,4%) So‘x (99,3) Furqat (98,5 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko‘rinib turibdi.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg‘ona shahar (24,2 %), Qo‘qon (17,4 %), Bag‘dod tumani (14,5 %) va shaharlarida kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi va o’sish sur’atlar

	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	2019-yilning yanvar oyiga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd.so‘m)	2019 yilning yanvar oyiga nisbatan, % da
Farg‘ona viloyati	116,3	117,1	890,2	103,9
shaharlar				
Farg‘ona	65,2	119,4	204,3	105,1
Qo‘qon	25,1	115,0	119,6	100,0

Quvasoy	1,1	80,4	22,0	106,8
Marg'ilon	7,2	129,5	70,7	100,8
tumanlar				
Oltiariq	1,2	106,4	36,6	104,4
Qo'shtepa	0,1	143,1	61,2	105,8
Bag'dod	5,3	138,6	31,1	104,0
Buvayda	0,6	132,3	34,8	105,6
Beshariq	0,6	104,2	32,4	106,4
Quva	3,0	175,2	46,6	103,8
Uchko'prik	1,3	252,6	37,4	102,1
Rishton	1,2	65,7	24,5	110,4
So'x	0,1	163,0	14,8	104,3
Toshloq	1,6	87,6	23,4	106,0
O'zbekiston	0,7	113,3	26,6	100,3
Farg'ona	0,2	12,8	34,3	108,6
Dang'ara	0,6	119,4	22,7	103,3
Furqat	0,3	114,7	16,1	103,5
Yozyovon	0,9	100,3	31,1	103,4

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2020-yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 270,7 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (940,8 ming so'm), Qo'qon (577,2 ming so'm) va Marg'ilon (334,3 ming so'm) shaharlari xissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (116,3 ming so'm), Toshloq (125,6 ming so'm) va Rishton (129,0 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	2019-yilning yanvar oyiga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	270,4	103,4
shaharlar		
Farg'ona	940,8	106,3
Qo'qon	577,2	100,8
Quvasoy	249,6	103,4
Marg'ilon	334,3	101,5
tumanlar		
Oltiariq	181,2	102,6
Qo'shtepa	326,6	103,8
Bag'dod	171,4	105,7
Buvayda	158,0	104,0
Beshariq	146,5	104,5
Quva	195,0	104,6
Uchko'prik	171,8	102,1
Rishton	129,0	105,0
So'x	193,1	102,6

Toshloq	125,6	102,6
O'zbekiston	116,3	98,7
Farg'ona	164,3	102,0
Dang'ara	136,3	101,8
Furqat	140,5	102,2
Yozyovon	293,8	101,3

Jumladan, 2020 yilning yanvar oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 % ni tashkil etib, 12,5 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**



2020 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasidagi ulushi kuzatilib, nisbatan, Farg'ona (6,8 %), Qo'qon(1,5 %), Marg'ilon (0,9 %) shaharlarida qayd etildi.


**FARG'ONA VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

(2020-yil yanvar)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 412,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 1,3 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-oylari yakunlariga ko'ra 366,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 88,8 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Oltiariq (99,9 %), Dang'ara (99,8 %) va Uchko'prik (99,7 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Yirik korxonalar



**Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari**




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 19,7 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Farg'ona (47,5 %), Bog'dod (20,0 %) tumanlarida hamda Qo'qon (16,0 %) shahrlida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	2019-yilning yanvar oyiga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar oyiga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar oyiga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	412,6	101,3	46,0	82,6	366,6	104,2
shaharlar						
Farg'ona	124,3	101,3	40,4	78,5	84,0	117,7
Qo'qon	53,6	101,7	5,0	228,5	48,7	96,3
Quvasoy	7,4	101,3	-	-	7,4	101,3
Marg'ilon	60,9	103,6	0,1	6,1	60,9	103,8
tumanlar						
Oltiariq	9,1	100,6	-	22,4	9,1	100,8
Qo'shtepa	0,6	99,7	-	-	0,6	99,7
Bag'dod	3,7	129,2	0,4	27,2	3,2	258,0
Buvayda	6,5	99,8	-	-	6,5	99,8
Beshariq	4,9	100,7	-	-	4,9	100,7
Quva	3,4	97,7	-	100,0	3,4	96,9
Uchko'prik	16,3	99,3	-	108,6	16,2	99,3
Rishton	1,9	99,1	-	102,5	1,9	99,0
So'x	0,3	102,9	-	38,1	0,3	109,3
Toshloq	23,0	100,3	0,1	-	22,9	99,8
O 'zbekiston	67,0	99,7	-	98,0	67,0	99,7
Farg'ona	4,0	103,5	-	3,4	4,0	111,9
Dang'ara	19,4	99,4	-	110,8	19,4	99,4
Furqat	2,6	98,1	-	-	2,6	98,1
Yozyovon	3,7	97,0	-	113,7	3,7	96,9

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)da**



Ulgurji tovar aylanmasida 2019-yilning shu davriga nisbatan eng quyi ko'rsatkichlar Yozyovon tumanida (97,0 %) va Quva (97,7 %) shaharida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi

Tel.:73-249-87-18